

## BOSHLANG'ICH TA'LIM TALABALARIDA PEDAGOGIK MENEJMENT MAHORATINI SHAKILLANTIRISH.

*Qurbanova Baxtixon Qo'chqarbayevna*

*FarDU pedagogika fanlari bo'yicha fan doktori, professor*

*Xatamova Durdonaxon*

*FarDU magistranti*

**Annotatsiya:** ushbu maqolada yosh kadrlardagi boshqaruvchanlik qobilyatini takomillashtirishning hozirgi kun uchun ahamiyati haqida yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** menejment, rahbar, boshqaruv, qobilyat, uslub, bosqich, struktura, mas'uliyat.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar va ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlarning barchasi ta'lif sifatini oshirishga qaratilgan. Bu boradagi ustuvor yondashuvlardan biri pedagogika oliy o'quv yurtlari bitiruvchi talabalarini tashkiliy-boshqaruv faoliyatidagi qobilyatinni oshirishdan iborat. Ta'lif tizimini modernizatsiya qilishning eng muhim yo'nalishi bu tizimni boshqarish modelini o'zgartirishdir.

Ta'lif tarbiya jarayonini mukammal tashkil etish uchun zamonaviy menejment tamoyillariiga asoslangan boshqarishning yangi usullarini ta'komillashtirish kerak. Sharq mutafakkirlarining buyuk faylasufi Abu Nasr Farobi o'zining "Fozil odamlar shahri" asarida rahbarlikning o'ziga xos jihatlari to'g'risida fikr yuritgan va rahbar uchun eng kerakligi donishmandlik ekanligini ta'kidlab o'tgan. "Jamiyatdaadolat o'rnatish, shahar davlatni boshqarish yo'llari, shahar hokimi qanday bo'lishi lozimligi, rahbar uchun zarur bo'lган hislatlar"<sup>1</sup> haqida qimmatli fikr bildirgan. Pedagogik faoliyatidagi boshqarish tushunchasi jarayonni tashkil etishni rejlashtirish, rag'batlantirish natijalarini nazorat qilish tushuniladi. Demak, boshqarish so'zi bugun modernizatsiya qilinib, menejment so'zi ma'nosini anglatadi.

Menejment- inglizcha so'z bo'lib, o'zbek tilida boshqaruvni tashkil etish, rahbarlik qilish ma'nolarini anglatadi. Shuningdek, menejment- bu ko'zlangan maqsadlarga erishish uchun faoliyatni muvofiqlashtirish hamda boshqarish usullari, shakllari va vositalari majmui.

Pedagogik menejment rahbarlarga boshqaruv faoliyatini to'g'ri amalga oshirish, xodimlar faoliyatini samarali boshqarish va muvofiqlashtirishda, shuningdek, korxona va muassasa oldiga qo'yilgan maaqsadlarga va ko'zlangan natjalarga erishishda

<sup>1</sup> Abu Nasr Farobi "Fozil odamlar shahri" 1993-yil 204-bet

muhim ahamiyat kasb etuvchi qarorlarni qabul qilish va ularni bajarishni nazorat va tahlil qilishni o'rgatadi.

Shuni ta'kidlash kerakki, "menejment" so'zi "boshqaruv" tushunchasidan farqli ravishda boshqaruv faoliyatini tashkil etish degan ma'noni anglatib, u fan sifatida boshqarishning sir asrorlarini o'rganadi va tahlil qiladi. "Boshqaruv" atamasi nisbatan kengroq ma'noni anglatadi, mazkur tushuncha orqali ma'lum bir shaxs tomonidan biron-bir ob'ektning boshqarilishini, ya'ni nafaqat insonlarni, balki mashina, dastgoh yoki texnologik qurilmalarni boshqarishni, shuningdek, mazkur boshqaruvchilarni ham boshqarishni tushunish mumkin. Mazkur fikrga asoslanib aytish mumkinki, ishlab chiqarishni boshqarish ishchilarni boshqarishdan iborat bo'lib, ular o'z navbatida mehnat vositalarini boshqaradilar, shunday ekan, boshqaruv tushunchasi boshqariladigan obekt va boshqaruvchi subekt munosabatlarini bildiradi.

Ta'lim muassasalarini rivojlantirish va boshqaruv faoliyatini takomillashtirishda bioritmlar nazariniyasining o'rni beqiyos. Ushbu nazariyaning ma'nosiga to'xtaladigan bo'lsak, ixtiyoriy ta'lim muassasasi sharoitida faoliyat ko'rsatuvchi pedagoglar va boshqa xodimlar o'rtasidagi o'zaro ta'sir va sub'ekt bilan ob'ektning o'zaro ta'sirlari bilan bir qatorda tashqi muhit ta'siri mavjud bo'ladi. Pedagog xodimlarga bo'lgan tashqi muhitning ta'siri ularning o'z faoliyatiga nisbatan moyilligini o'zgartiradi.

Boshlang'ich ta'limda pedagogik menejment talabalarning kelajakdag'i pedagogik faoliyatida muhim ahamiyatga ega. Ta'lim tizimining samaradorligini oshirish, o'quv jarayonini rejalashtiirish va boshqarish, shuningdek o'ziga xos jihatlarini inobatga olish zarur. Pedagogik menejmenti fani ta'lim muassasalari rahbarlarining boshqaruv faoliyati, boshqaruv mas'uliyati va madaniyati, boshqaruv funksiyalari va metodlari, boshqarishning qonun- qoidalari va tamoyillari, rahbar va lider fazilatlari, ta'lim muassasalarini boshqarishda axborot va kommunikatsiya, rahbarlarning innovatsion faoliatlari, boshqaruvda tarbiyaviy munosabatlar va rahbarlik uslublari, ta'lim muassasalarining tashkiliy tuzilishi, strategik boshqaruv va rejalashtiirish, rahbarning ish vaqtি va undan foydalanish, personally boshqarish hamda ta'lim muassasalarini boshqarishda motivlashtiirish va motivlashtiirish nazariyalarini tadqiq etadi.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ta'lim tizimidagi islohotlar ta'lim tizimini boshqarish mexanizmlarini o'zgartirish, takomillashtirishni, ya'ni boshqaruvning ma'muriy buyruqbozlik metodlaridan voz kechib, ijtimoiy- iqtisodiy, zamonaviy talablarga mos keladigan, demokratik tamoyillarga asoslangan boshqaruv tizimini shakllantirishni taqozo etmoqda. Bu bugungi kunniing eng asosiy talablaridan biri bo'lib, nafaqat boshqaruv muammolari, balki, sub'ektlarning boshqaruv faoliyatini tashkil etish va ularni shakllantirish zamirida, eng avvalo, boshqaruv tizimining turli bo'g'ini rahbarlarining boshqaruv faoliyatini takomillashtirishning yo'l- yo'riqlarini

aniqlash, yangi sharoitlarga muvofiqlashtirish va amaliyotga joriy etish vazifalarini belgilaydi. Shundan kelib chiqib, ta’lim tizimini rivojlantirish yo’nalishida amalgam oshirilayotgan islohotlar barcha ta’lim muassasalarida ta’lim jarayonini ilmiy asosda tashkil etish va boshqarishda fan- texnika yutuqlariga asoslangan boshqaruvning eng samarali, innovatsion metodlaridan foydalanish, boshqaruv yo’nalishida bilim, ko’nikma va malakalarni, yangi shaxsiy va kasbiy sifatlarni talab qiladi.

Zamonaviy boshqaruv yondashuvlari asosida ta’lim jarayonini boshqaruv yondashuvlari asosida ta’lim jarayonini boshqarishni shakllantirish yangi uyg’onish davri pedagogikasining hal qiluvchi jihatni bo’lib, ta’limda ijodkorlik, moslashuvchanlik va innovatsiyalarni kuchaytiradi. Dastlab, ta’lim muassasalarini boshqarish qarorlar qabul qilish markazlashgan an’anaviy ierarxik tuzilmalarga asoslangan edi.

### pedagogik boshqaruvda kreativ faoliyatni tashkil etishga imkon beradigan malakalar guruhlari:

**loyihalash malakalari**

**ijtimoiy- amaliy malakalar**

**tadqiqotchilik malakalari**

Pedagogik boshqaruvda kreativlik muhim ro’l o’ynaydi. Amerikalik pedagog Patti Drepeau tomonidan pedagoglarning kreativlik sifatlarini rivojlantirishning 4 ususlini ko’rsatgan.

1-usul: kreativ fikrlash ko’nikmasini shakllantirish.

2-ususl: amaliy kreativharakat ko’nikmalarini shakllantirish.

3-usul: faqat faoliyat jarayonlarini tashkil etish.

4-usul: kreativ metodlardan foydalanish.

Boshlang’ich ta’lim talabalarida pedagogik menejment mahoratini shakllantirish, ularning kelajakdagagi o’qituvchilik faoliyatida muvaffaqiyatli bo’lishlari uchun muhim ahamiyatga ega. Pedagogik menejment — bu ta’lim jarayonini samarali boshqarish, talabalarning individual ehtiyojlarini hisobga olish, shuningdek, o’qitishning maqsadlariga erishish uchun o’qituvchi va talaba o’rtasidagi o’zaro aloqalarni tashkil etish jarayonidir.

Boshlang'ich ta'lif talabalarida bu mahoratni shakllantirish uchun bir nechta asosiy yo'nalishlar mavjud. Avvalo, talabalarni o'qitish jarayonining rejalashtirish va tashkil etish aspektlariga o'rgatish lozim. Bunda o'qituvchi darsni samarali tashkil etish, resurslarni to'g'ri taqsimlash va vaqtini boshqarish kabi ko'nikmalarga ega bo'lishi zarur. Shuningdek, ta'lifda innovatsion texnologiyalarni qo'llash va yangi pedagogik yondashuvlarga erishish ham pedagogik menejmentning ajralmas qismidir.

Pedagogik menejmentni o'rganish, talabalarni faqat nazariy bilimlar bilan emas, balki amaliy ko'nikmalar bilan ham ta'minlashni taqozo etadi. Bu o'z navbatida, boshlang'ich ta'lifdagi samarali pedagogik faoliyatni ta'minlashga yordam beradi va o'qituvchining pedagogik mahoratini rivojlantirishga xizmat qiladi. Talabalar o'quv jarayonida o'z fikrlarini erkin ifodalash, jamoa bo'lib ishlash, talaba va o'qituvchi o'rtaida samarali muloqotni yo'lga qo'yish kabi ko'nikmalarni egallashlari zarur.

Xulosa qilib aytganda, pedagogik menejment mahoratini shakllantirish boshlang'ich ta'lif talabalarini malakali, innovatsion fikrlaydigan va samarali o'qituvchilar sifatida tarbiyalashda muhim rol o'ynaydi. Bu jarayonni to'g'ri tashkil etish va o'qitish orqali, kelajakda ta'lif sohasida yuqori sifatli xizmat ko'rsatish imkoniyatlari yaratish mumkin.

### **Foydalaniilgan adabiyotlar**

1. Abu Nasr Farobiy “Fozil odamlar shahri”
2. Begmatov A., Quraev M. Ijtimoiy pedagogikaning dolzarb masalalari. T.: OPI to‘plami.
3. Golovanova N.F., Boshlang'ich sinf o'quvchisini ijtimoiylashtirish pedagogik muammo sifatida. - SPb .: Maxsus adabiyotlar, 1997. S. 17.
4. Journal of collage teaching
5. Ne'matova Flora Baxtiyorovna “Ijtimoiy pedagogika” “Fan va ta'lif” nashriyoti Buxoro-2022